



KASALLIK YOKI MEHNAT QOBILIYATINI YO'QOTISH OQIBATIDA JAZODAN OZOD QILISH

Elbekjon Odiljonovich Turgunboev

Toshkent davlat yuridik universiteti
mustaqil izlanuvchisi, yuridik fanlar nomzodi

azizovbekzod050@gmail.com

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7816314>

ARTICLE INFO

Received: 31th March 2023

Accepted: 10th April 2023

Online: 11th April 2023

KEY WORDS

Jinoiy jazo, jazodan ozod qilish, kasallik yoki mehnat qobiliyatini yo'qotish oqibatida jazodan ozod qilish, sud amaliyoti, odillik, insonparvarlik, ayb uchun javobgarlik.

ABSTRACT

Mazkur maqolada muallif jinoyat huquqida kasallik yoki mehnat qobiliyatini yo'qotish oqibatida jazodan ozod qilish tushunchasi va uning belgilari o'ziga xos jihatlarini yoritgan.

Jinoyat qonunining 7-moddasiga ko'ra jazo va boshqa huquqiy ta'sir choralari jismoniy azob berish yoki inson qadr-qimmatini kamsitish maqsadini ko'zlamaydi. Shu sababdan ham hukm chiqarilganidan keyin o'z harakatlarining ahamiyatini anglay olmaydigan yoki ularni boshqara olmaydigan tarzda ruhiy holatining buzilishi yuzaga kelgan shaxs, shuningdek jazoni o'tashga to'sqinlik qiladigan boshqa og'ir kasallikka chalingan shaxs jazoni o'tashdan ozod qilinishi belgilangan. Jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan u axloqan tuzalishi va yangi jinoyat sodir etishining oldini olish uchun zarur hamda yetarli bo'ladigan jazo tayinlanishi yoki boshqa huquqiy ta'sir chorasi qo'llanilishi kerak.

Ushbu qoida Jinoyat kodeksi 67-moddasida nazarda tutilgan kasallik tufayli javobgarlikdan ozod qilish qoidasidan qo'llanilish shartlari va protsessual tartibiga ko'ra farqlanadi. Jinoyat kodeksining 67-moddasida faqatgina ruhiy kasalligi uchun javobgarlikdan ozod qilish tartibi belgilangan bo'lsa, ushbu normada ruhiy kasallik bilan birga jazoni o'tashga to'sinlik qiladigan kasalliklar uchun ham jazodan ozod qilish tartibi belgilanganligi ham ochib berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 26-moddasida hech kim qiynoqqa solinishi, zo'rvonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzda tazyiqqa duchor etilishi mumkin emasligi mustahkamlangan¹.

¹ Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. <https://lex.uz/docs/20596>



Shu jihatdan ham jinoiy jazoga hukm qilingan shaxsning kasallikka chalinishi ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq yoki bog'liq bo'lmagan jinoiy jazolarni o'tashiga sezilarli darajada mone'lik qiladi. Shu sababdan kasallik yoki mehnat qobiliyatini yo'qotish oqibatida jazodan ozod qilish milliy jinoyat qonunchiligida jazodan ozod qilishning bir turi sifatida belgilangan. Unga ko'ra hukm chiqarilganidan keyin o'z harakatlarining ahamiyatini anglay olmaydigan yoki ularni boshqara olmaydigan tarzda ruhiy holatining buzilishi yuzaga kelgan shaxs, shuningdek jazoni o'tashga to'sqinlik qiladigan boshqa og'ir kasallikka chalingan shaxs jazoni o'tashdan ozod qilinishi lozim. Bu toifadagi shaxslarga nisbatan sud tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llashi mumkin.

Bu turdagi jinoiy jazodan ozod qilish jazoni ijro etishda insonparvarlik prinsipi namoyon bo'lishi shakli sifatida namoyon bo'lib, jazodan ko'zlangan maqsadga erishishnin imkoni bo'lmagan hollarda jazodan ozod qilishda ifodalanadi.

M.H.Rustamboev kasallik yoki mehnat qobiliyatini yo'qotish oqibatida jazodan ozod qilishni jazodan ozod qilishning aralash turiga mansub, deb hisoblaydi². M.Usmonaliev esa jazodan ozod qilishning mazkur turini sud tomonidan tayinlangan jazoning o'talmagan qismidan ozod qilish turi³ sifatida qayd etadi.

Boshqa mualliflar kasallik yoki mehnat qobiliyatini yo'qotishi oqibatida jazodan ozod qilish shaxsga bog'liq holatlarga ko'ra jazodan ozod qilish deb tushuntiradi⁴.

Yuridik adabiyotlarda kasallik yoki mehnat qobiliyatini yo'qotish oqibatida jazodan ozod qilish jazodan ozod qilishning shartsiz turiga mansub⁵. Bu qarashga qarama-qarshi fikr tarafdorlari agar shaxs kasallikdan tuzalsa va jazoni o'tash muddatlari o'tib ketmagan bo'lsa u jinoiy jazoni o'tashni davom ettirishiga oid qoida mavjudligi sababli V.P.Malkov shartli turga mansub jazodan ozod qilish sifatida baholaydi⁶.

Jinoyat qonunining 7-moddasiga ko'ra jazo va boshqa huquqiy ta'sir choralari jismoniy azob berish yoki inson qadr-qimmatini kamsitish maqsadini ko'zlamaydi. Shu sababdan ham hukm chiqarilganidan keyin o'z harakatlarining ahamiyatini anglay olmaydigan yoki ularni boshqara olmaydigan tarzda ruhiy holatining buzilishi yuzaga kelgan shaxs, shuningdek jazoni o'tashga to'sqinlik qiladigan boshqa og'ir kasallikka chalingan shaxs jazoni o'tashdan ozod qilinishi belgilangan.

Jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan u axloqan tuzalishi va yangi jinoyat sodir etishining oldini olish uchun zarur hamda yetarli bo'ladigan jazo tayinlanishi yoki boshqa huquqiy ta'sir chorasi qo'llanilishi kerak.

Ushbu qoida Jinoyat kodeksi 67-moddasida nazarda tutilgan kasallik tufayli javobgarlikdan ozod qilish qoidasidan qo'llanilish shartlari va protsessual tartibiga ko'ra farqlanadi. Jinoyat kodeksining 67-moddasida faqatgina ruhiy kasalligi uchun javobgarlikdan

² Рустамбаев М.Х. Жиноят ҳуқуқи. II том.-Т.: "ILM ZIYO", 2011.-Б.178.

³ Усмоналиев М. Жиноят ҳуқуқи. Умумий қисм. Олий ўқув юртлири учун дарслик. —Т., "Янги аср авлоди", 2010. —Б. 555.

⁴ Иванцова Наталья Владимировна, Кабанова Варвара Геннадьевна Освобождение от наказания в уголовном праве // Марийский юридический вестник. 2017. №1 (20). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/osvobozhdenie-ot-pakazaniya-v-ugolovnom-prave>

⁵ Базаров Р. А., Михайлов К. Освобождение от уголовной ответственности и наказания. Челябинск, 2001. —С.127.

⁶ Малков В. Ответственность граждан, освобожденных от отбывания наказания по болезни // Российская юстиция. 2001. № 6. С. 37–38. URL: <https://www.lawmix.ru/comm/6065>.



ozod qilish tartibi belgilangan bo'lsa, ushbu normada ruhiy kasallik bilan birga jazoni o'tashga to'sinlik qiladigan kasalliklar uchun ham jazodan ozod qilish tartibi belgilangan. Shuningdek, kasalligi tufayli javobgarlikdan ozod qilish (JK 67-m.) hukm chiqarilgunga qadar ruhiy kasallikka chalingan shaxslarga tadbiiq etilsa, Jinoyat kodeksining 75-moddasida nazarda tutilgan qoida hukm chiqarilgandan keyin ruhiy kasallik va boshqa kasallikka chalinganlarga tadbiiq etiladi⁷.

Qayd etish kerakki, mazkur shaxslar tuzalganidan keyin, JK [69-moddasida](#) nazarda tutilgan va sud tomonidan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llanilgan kundan boshlab hisoblanadigan muddatlar o'tib ketmagan bo'lsa, jazo ijro etiladi.

JKning 75-moddasida shaxs hukm chiqarilgandan keyin o'z harakatlarining ahamiyatini anglay olmaydigan va boshqara olmaydigan darajada ruhiy kasallikka, shuningdek, jazoni o'tashga to'sinlik qiladigan boshqacha og'ir kasallikka chalinib qolsa, jazoni o'tashdan ozod qilinishi mumkinligi nazarda tutilgan.

JKning 67-moddasida faqat ruhiy kasallikka chalingan shaxslarni javobgarlikdan ozod qilish nazarda tutilgan bo'lsa, JKning 75-moddasida esa to'rtta holatda jazodan ozod qilish nazarda tutilgan bular:

- a) hukm chiqarilgandan keyin o'z harakatlari ahamiyatini anglay olmaydigan va o'z harakatlarini boshqara olmaydigan darajada ruhiy kasallikka chalingan;
- b) jazoni o'tashga to'sinlik qiladigan boshqacha og'ir kasallikka chalingan;
- v) axloq tuzatish ishlariga hukm qilinib, jazoni o'tash vaqtida mehnatga yaroqsiz bo'lib qolsalar yoxud pensiya yoshiga yetib qolsalar, bu turdagi jazoni o'tash vaqtida homiladorlik holatida bo'lsalar;
- g) intizomiy qismga jo'natish yoxud xizmat bo'yicha cheklash jazosiga hukm qilingan harbiy xizmatchilar, ularning sog'ligi harbiy xizmat uchun yaroqsiz deb topilgan bo'lsa, jazoni o'tashdan ozod qilinadilar. Xizmat bo'yicha cheklash jazosiga hukm qilingan harbiy xizmatchi ayollar ularga homiladorlik va tug'ish ta'tili berilishi munosabati bilan ham jazoni o'tashdan ozod qilinadilar⁸.

Jazodan ozod qilishning ushbu turlari hukm chiqarilgan paytdan boshlab to jazo muddati tugaguncha qo'llanishi mumkin.

Hukm chiqarilganidan oldin shaxs ruhiy kasallikka chalinib qolsa jinoiy javobgarlikdan ozod qilinadi. Boshqacha og'ir kasallikka chalinganlar davolanishga yuboriladi. Ushbu shaxs tuzalishi bilan jinoiy javobgarlikka tortish masalasi hal qilinadi.

Ushbu aytilganlardan ko'rinib turibdiki, JK 75-moddasida nazarda tutilgan kasallik yoki mehnat qobiliyatini yo'qotish oqibatida jazodan ozod qilish hukm chiqarilgan paytdan to hukm qonuniy kuchga kirguncha va jazoni o'tash vaqtida qo'llanishi mumkin.

Hukm chiqarilganidan keyin ruhiy kasallikka chalingan shaxslarni jazodan ozod qilish sudning huquqi emas, balki majburiyati hisoblanadi. Ruhiy kasallikka chalingan shaxs o'z harakatlarini idora qila olmasligi va harakati tufayli kelib chiqqan oqibatning ijtimoiy mohiyatini anglamaydi.

⁷ Жиноят ҳуқуқи. Умумий қисм: Дарслик (Тўлдирилган ва қайта ишланган иккинчи нашри) / Р. Кабулов, А. А. Отажонов ва бошқ. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2012. –Б.414-415.

⁸ Усмоналиев М. Жиноят ҳуқуқи. Умумий қисм. Дарслик. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. – Б. 610.



O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 534-moddasiga ko'ra mahkum jazoni o'tayotgan vaqtida jazoni o'tashga monelik qiladigan ruhiy holatining surunkali buzilishi yuzaga kelgan yoki boshqa og'ir kasallikka duchor bo'lgan taqdirda sudya jazoning ijro qilinishiga mutasaddi organning taqdimnomasiga binoan, maxsus tibbiy komissiyaning xulosasiga asosan mahkumni o'talmay qolgan jazoni o'tashdan ozod qilish to'g'risida ajrim chiqaradi⁹. Shuningdek, ruhiy holatining surunkali buzilishi yuzaga kelgan mahkumni o'talmay qolgan jazodan ozod qilishda sudya unga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov chorasini tayinlashga yoxud uni sog'liqni saqlash organlari yoki qarindoshlari vasiyligiga berilishi mumkin.

Bundan tashqari ruhiy holatining buzilishi yuzaga kelgan shaxslardan tashqari, og'ir kasallikka duchor bo'lgan shaxslarni o'talmay qolgan jazodan ozod qilish masalasini hal etishda sudya sodir etilgan jinoyatning og'irligini, mahkumning shaxsini va boshqa holatlarni hisobga oladi.

Mahkumni o'talmay qolgan jazodan kasalligi tufayli ozod qilganda sudya uni faqat asosiy jazodan emas, balki qo'shimcha jazo chorasidan ham ozod qilishga haqli.

JPKning 542-moddasi beshinchi qismiga muvofiq mahkumni kasalligi, nogironligi sababli jazoni o'tashdan ozod etish to'g'risidagi, jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish to'g'risidagi, jazoning o'talmagan qismini yengilroq jazo bilan almashtirish to'g'risidagi, jazoning shartliligini bekor qilish to'g'risidagi, bir jazoni o'tash koloniyasidan boshqa tartibli koloniyaga o'tkazish to'g'risidagi, tarbiya koloniyasidan jazoni ijro etish koloniyasiga, jazoni ijro etish koloniyasidan turmaga va turmadan jazoni ijro etish koloniyasiga o'tkazish to'g'risidagi, maxsus tartibli jazoni o'tash koloniyasidan qattiq tartibli jazoni o'tash koloniyasiga o'tkazish to'g'risidagi, axloq tuzatish ishlari o'talgan vaqtni mahkumning mehnat stajiga qo'shish, shuningdek mahkumlarga nisbatan amnistiya aktini qo'llash to'g'risidagi masalalar mahkum jazoni o'tab turgan joydagi tuman (shahar) sudining ajrimi bilan hal etiladi¹⁰.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining 165-moddasida kasallik tufayli yoki mehnat qobiliyatini yo'qotganlik oqibatida jazodan ozod qilishga taqdim etish tartibi belgilangan. Unga ko'ra jazoni ijro etuvchi muassasa yoki organ ma'muriyati Jinoyat kodeksining 75-moddasida nazarda tutilgan hollarda mahkumni jazoni o'tashni davom ettirishdan ozod qilish to'g'risida sudga taqdimnoma kiritadi. Shu bilan birga sudga tibbiy komissiya xulosasi va mahkumning shaxsiy hujjatlar yig'majildi ham yuboriladi. Mahkumni ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazodan kasalligi tufayli ozod qilish to'g'risidagi taqdimnoma kiritishda O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining maxsus tibbiy komissiyasi xulosasi talab etiladi. Bunday kasalliklar ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

Mahkumlarni kasalligi tufayli jazoni o'tashdan ozod qilishga taqdim etish uchun asos bo'ladigan kasalliklarning quyidagi 16 turdagi **ro'yxati** Og'ir kasallikka chalingan

⁹ Ўзбекистон Республикаси Жиноят-процессуал кодекси. <https://lex.uz/docs/111460#4516352>

¹⁰ Ўзбекистон Республикаси Жиноят-процессуал кодекси. <https://lex.uz/docs/111460#4516352>



mahkumlarni tibbiy tekshiruvdan o'tkazish va ularni kasalligi tufayli jazoni o'tashdan ozod qilishga taqdim etish Qoidalari belgilangan¹¹:

Qayd etish kerakki, bunday kasallik va uning asoratlarini tasdiqlash uchun O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining tegishli Respublika ilmiy tekshirish instituti(markazi)ning xulosasi bo'lishi shart.

Shuningdek, mahkumni axloq tuzatish ishlari tariqasidagi jazodan mehnat qobiliyatini yo'qotganligi oqibatida ozod qilish to'g'risidagi taqdimnoma tibbiy-mehnat ekspert komissiyasi xulosasi asosida kiritiladi.

Harbiy xizmatchilarni intizomiy qismga jo'natish yoki xizmat bo'yicha cheklash tariqasidagi jazoni o'tashdan ozod qilish to'g'risidagi taqdimnoma tegishli harbiy-tibbiy komissiyaning ularni harbiy xizmatga yaroqsiz deb topish haqidagi xulosasi asosida kiritiladi. Ayol harbiy xizmatchilar xizmat bo'yicha cheklash tariqasidagi jazoni o'tashdan homiladorlik va tug'ish ta'tili berilishi munosabati bilan ham ozod qilinadilar.

Boshqacha og'ir kasallik tufayli jazoni o'tashdan ozod qilish sudning huquqi bo'lib, sud jazodan ozod qilish yoki ozod qilmaslik masalasini hal qiladi. Boshqacha og'ir kasallikning turi yoki qanday kasallarni jazodan ozod qilish mumkin bo'lgan kasalliklar ro'yxati qonunda nazarda tutilmagan. Boshqacha og'ir kasallik har qanday og'ir kasallik bo'lishi mumkin va bunday kasallik albatta, jazoni o'tashga to'sqinlik qiladigan og'ir kasallik (masalan, har ikkala qo'lning ishlamay qolishi, inson ichki a'zolaridan biri faoliyatining ishdan chiqishi va hokazolar) bo'lishi kerak.

JKning 46-moddasiga ko'ra, axloq tuzatish ishlari pensiya yoshiga yetganlarga, mehnatga qobiliyatsizlarga, homilador ayollarga, yosh bolasini boqish uchun ta'tilda bo'lgan ayollarga nisbatan tayinlanmaydi. Shunga ko'ra, axloq tuzatish jazosiga hukm qilingan yuqorida aytilgan shaxslar hukm qilinganidan keyin yoki jazoni o'tash vaqtida mehnatga yaroqsiz bo'lib qolsalar jazodan ozod qilinadilar. Bunday shaxslarda jazoni ijro etish muddati yoki jazoni o'tash muddati tugamasdan mehnat qobiliyati tiklansa (homilasi tushishi, yosh bolaning o'lib qolishi yoki yosh bolasining qonunda belgilangan yoshga yetishi munosabati bilan yoxud mehnat qobiliyatini yo'qotganlarida) mehnat qobiliyati tiklangani munosabati bilan jazoni o'tash to'g'risida ajrim chiqarish mumkinmi, degan savol tug'iladi. Qonunda bu haqda hech narsa deyilmagan. Shunga ko'ra, ularga hech qanday shart qo'yilmay jazodan butunlay ozod qilinadi. Ammo ruhiy kasallikka chalinib sud tomonidan tibbiy yo'sindagi majburlov chorasi qo'llanilgan shaxs O'zR JKning 69-moddasida (jazoni ijro etish muddatlari) nazarda tutilgan muddatlar o'tmasdan yoki jazo muddati tugamasdan tuzalsalar jazo ijro etiladi. Bunday holda tibbiy yo'sindagi majburlov chorasi muddati jazo muddatiga qo'shib hisoblanishi kerak.

Intizomiy qismga jo'natish yoxud xizmat bo'yicha cheklash jazosiga hukm qilingan harbiy xizmatchilar ularning sog'ligi harbiy xizmat uchun yaroqsiz deb topilgan bo'lsa, jazoni o'tashdan ozod qilinadilar. Bunda ozod qilinayotgan harbiy xizmatchining huquqini cheklovchi yoki majburiyat yuklovchi cheklashlarsiz jazodan to'la ozod qilinadi.

¹¹Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазири ва Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазири қарори “оғир касалликка чалинган маҳкумларни тиббий текширувдан ўтказиш ва уларни касаллиги тufайли жазони ўташдан озод қилишга тақдим этиш қoидаларини тасдиқлаш ҳақида”ги Қарори. [Ўзбекистон Республикаси Адлия вазири томонидан 2008 йил 9 сентябрда 1854-сон билан давлат рўйхатидан ўтказилган] <https://lex.uz/docs/1390458#1390824>



JKning 75-moddasiga binoan jazodan ozod qilishda sodir etilgan jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi, sodir etilgan jinoyatning turi, mahkum shaxsining ijtimoiy xavflilik darajasini hisobga olish yoki olmaslik nazarda tutilmagan.

Ammo, JPK 534-moddasining to'rtinchi qismida ruhiy kasallikka duchor bo'lgan shaxslardan tashqari, og'ir kasallikka duchor bo'lgan shaxslarni o'talmay qolgan jazodan ozod qilish masalasini hal qilishda sudya sodir etilgan jinoyatning og'irligi, mahkumning shaxsini va boshqa holatlarni hisobga oladi deyilgan.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. <https://lex.uz/docs/20596>
3. Rustambaev M.H. Jinoyat huquqi. II tom.-T.: "ILM ZIYO", 2011.-B.178.
4. Usmonaliev M. Jinoyat huquqi. Umumiy qism. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. —T., "Yangi asr avlodi", 2010. –B. 555.
5. Ivansova Natalya Vladimirovna, Kabanova Varvara Gennadevna Osvobojdienie ot nakazaniya v ugolovnom prave // Mariyskiy yuridicheskiy vestnik. 2017. №1 (20). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/osvobozhdenie-ot-nakazaniya-v-ugolovnom-prave>
6. Bazarov R . A., Mixaylov K. Osvobojdienie ot ugolovnoy otvetstvennosti i nakazaniya. Chelyabinsk, 2001. –S.127.
7. Malkov V. Otvetstvennost grajdan, osvobojdennyyh ot otbyvaniya nakazaniya po bolezni // Rossiyskaya yustitsiya. 2001. № 6. S. 37–38. URL: <https://www.lawmix.ru/comm/6065>.
8. Jinoyat huquqi. Umumiy qism: Darslik (To'ldirilgan va qayta ishlangan ikkinchi nashri) / R. Kabulov, A. A. Otajonov va boshq. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012. – B.414-415.
9. Usmonaliev M. Jinoyat huquqi. Umumiy qism. Darslik. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005. – B. 610.
10. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi. <https://lex.uz/docs/111460#4516352>
11. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining qarori "og'ir kasallikka chalingan mahkumlarni tibbiy tekshiruvdan o'tkazish va ularni kasalligi tufayli jazoni o'tashdan ozod qilishga taqdim etish qoidalarini tasdiqlash haqida"gi Qarori. [O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2008 yil 9 sentabrda 1854-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan] <https://lex.uz/docs/1390458#1390824>
12. Niyozova Salomat Saparovna. Strong Emotional Arousal (Effect) As A Criminal Law Norm. The American Journal of Political Science Law and Criminology (ISSN – 2693-0803) Published: March 31, 2021 | Pages: 96-102 Doi:<https://doi.org/10.37547/tajpslc/Volume> 03 Issue p. 03-15.
13. S.S.Niyozova. Prevention of Crime in the Family and the Role of Victimology in the Republic of Uzbekistan. International Journal of Advanced Science and Technology Vol. 29, No. 3, (2020), p. 3962.



14. S.S.Niyozova. Reasons for Suicide and the Issue of Responsibility. International Journal of Pharmaceutical Research | Dec 2020 | Vol 12 | Supplementary Issue 3 p. 528.